

Bo'ranova Ruxshona Rustam qizi
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lgan tafakkur haqida yozilgan. Shu bilan birga tafakkurning shakllari, operatsiyalari va tafakkur haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan.

Abstract: This article is written about thinking, which is the highest form of human mental activity. At the same time, some information is given about the forms of thinking, operations and thinking.

Аннотация: Данная статья написана о мышлении, которое является высшей формой мыслительной деятельности человека. При этом даются некоторые сведения о формах мышления, операциях и мышлении.

Kalit so'zlar: Tafakkur, psixologiya, hukm, xulosa chiqarish, tushuncha.

Key words: Thinking, psychology, judgment, conclusion, understanding.

Ключевые слова: Мысление, психология, суждение, вывод, понимание.

Tafakkur deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytildi. Tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun sharoitdir. Narsa yoki hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Tafakkur jarayonida fikr paydo bo'ladi. Voqelik tafakkurda idrok va tasavvurdagiga qaraganda chuqurroq va to'laroq aks etadi. Umumiylig qilib aytganda tafakkur - voqeylekni umumiylashtirib aks ettirishdir.

Binobarin, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat ² eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirilishga (bilishga) imkon beradi. Tafakkur qilish jarayoni biror psixik elementlarning shunchaki bir-biri bilan almashinishi tarzida voqe bo'lmasdan, balki alohida aqliy operat-siyalar biz idrok qilayotgan yoki tasavvur qilayotgan narsalar (obyekt-lar) ustida, biz umumiylashgan va abstrakt tushunchalarga ega bo'lgan obyektlar ustida aqliy harakatlar qilish tarzida voqe bo'ladi. Tafakkur qilish operativ jarayondir. Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiylashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayomda hosil bo'ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar vujudga keladi.

Tafakkur operatsiyalari:

- Analiz
- Sintez
- Taqqoslash
- Abstraksiya
- Umumlashtirish
- Konkretlashtirish

- Klassifikatsiyalash
- Sistemalashtirish

Odamlarning fikrlarini nutq orqali va amaliy muomalada bilib olishga, tushunib olishga to'g'ri kelinganida odam o'z fikrini ishlatadi. Mana shundan ijodiy tafakkur va tushunish deb ataladigan tafakkur kelib chiqadi. Tafakkurning faolligi qay turda bo'lishiga qarab, u ixtiyoriy va ixtiyorsiz tafakkurga bo'linadi, tafakkurning umumiylashganlik darajasiga qarab, u aniq va abstrakt tafakkurga, yo'nalishiga qarab, u nazariy va amaliy tafakkurga bo'linadi. Odamning ongida yangi hukmlar va tushunchalar paydo bo'lsa, bunday hollarda ijodiy tafakkur paydo bo'ladi. Tushunish ijodiy tafakkurdan farq qiladi, gavdalantiruvchi xayol bo'lgani kabi, tushunishni ham gavdalantiruvchi tafakkur deb ta'riflash mumkin.

Tafakkur shakllari:

- Hukm
- Xulosa chiqarish
- Tushuncha

Hukm biror narsa (yoki biror kimsa) haqida biror nimani tasdiqlash yoki inkor qolish demakdir.

Xulosa chiqarish tafakkurning tarixan tarkib topgan mantiqiy shaklidir, tafakkurning shu mantiqiy vositasi bilan bir yoki bir necha ma'lum hukmlar (asoslardan) yangi hukm xulosa chiqariladi.

Tushuncha narsalar to'g'risida ularning xususiyatlari, holatlari, bog'lanishlari va munosabatlari to'g'risida bir-biri bilan bog'langan hukmlardan hosil bo'ladi. Jumladan P.L.Ivanovning darsligida «tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonni tag'in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi» deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rifa tafakkurning to'la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta'kidlab o'tiladi, xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bevosita so'z yordami bilan ifodalanishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan.

Tafakkur - bu aksiomatik qoidalar asosida atrofdagi dunyoning naqshlarini modellashtirishning aqliy jarayonidir. Biroq, psixologiyada boshqa ko'plab ta'riflar mavjud. Masalan: inson ma'lumotlarini qayta ishlashning eng yuqori bosqichi, atrofdagi dunyo ob'ektlari yoki hodisalari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish jarayoni; yoki - ob'ektiv voqelik haqidagi g'oyalarning paydo bo'lishiga olib keladigan ob'ektlarning muhim xususiyatlarini, shuningdek ular o'rtasidagi munosabatlarni aks ettirish jarayoni. Ta'rif bo'yicha bahslar bugungi kungacha davom etmoqda. "Tavarak-atrofdagi narsalarga taalluqli bo'lgan sezgilarimiz va tasavvurlarimiz esa, deydi I. P. Pavlov, biz uchun voqelikning birinchi signallaridir, aniq signallardir". (Полное собрание сочинений, III том, 2-китоб, 232-бет).

Tadqiqot natijalari:

Bolalar bir yoshga yetganlarida kattalarning aytgan so'zlarini tushuna boshlaydilar. Kattalarning: «Qani qoshiq?», «Qani kosa?», «Soat qani?» degan savollariga javoban, bola shu narsalarga qayrilib qaraydi yoki qo'li bilan shu narsalarni ko'rsatadi. Bolaning atrofidagi kishilar aytgan so'zlarni tushunayotganligi uning endi fikr qila boshlaganligini ko'rsatadi. Bola ikki yoshga yetganida uning tafakkuri hukmlarda ifodalana boshlaydi, bu davrda uning

tili chiqib, yaxshi gapira oladigan bo'ladi. Bola o'z atrofidagi odamlar bilan nutq orqali aloqa qilib, tafakkurning mazmunini va shakllarini ko'proq egallay boradi. Keyin bolaning tafakkuri nutqning o'sishi bilan birgalikda o'sib boradi. Ushinskiy degan ediki: "Bola agar shunday deb aytish mumkin bo'lsa, shakllar, bo'yoqlar, tovushlar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tafakkuri ham, asosan aniq- amaliy va aniq- yaqqol tafakkur bo'ladi. Lekin tarbiya ta'siri bilan tajriba va bilimlar to'planishi sababli hamda umuman aql-idrokning birmuncha o'sganligi sababli, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tafakkuri yasli yoshidagi bolaning tafakkuriga nisbatan ancha mazmunti bo'lib qoladi. Uning fikrlash jarayonlari ham ancha ta- komillashadi: uning taqqoslashi ancha aniqroq bo'ladi, analizi ancha mufassalroq, umumiylashtirishlari ancha aniq va kengroq bo'ladi. I.P.Pavlov fikr qilish faoliyatida abstraksiyaning alohida ahamiyati borligini uqtirib, bunday degan edi: «Umumiylashtirishga keng imkoniyat ochib bergen so'zning alohida xususiyati bo'lmish abstraksiya tufayli biz vogelikka bo'lgan munosabatimizni vaqt, makon, sababiyat kabi umumiy tushunchalar shakliga solganmiz» («Павловские среды», III том, 320-бет)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tafakkur aqliy faoliyatning keng doirasini, jumladan, fikrlash, tasavvur qilish va introspeksiyanini o'z ichiga oladi. Bu bizning intellektual o'sishimizni boshqaradigan va atrofimizdagi dunyonи tushunishimizga imkon beradigan vosita.Tafakkur inson bilimining eng yuqori bosqichidir; atrofdagi real dunyonи bilish jarayoni, uning asosi tushunchalar, g'oyalar zaxirasini ta'lim va doimiy ravishda to'ldirishdir; yangi hukmlarni chiqarishni (xulosalarni amalga oshirishni) o'z ichiga oladi.

REFERENCES:

1. P.I.Ivanov.M.E.Zufarova Umumiy Psixologiya
2. G'oziyev E "Umumiy psixologiya" 1-kitobi Toshkent 2004
3. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
4. qizi Imonova, MB (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. National Scientific Research International Journal natijalari , 2 (3), 156-161.
5. Иманов, Б., & Имanova, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.
6. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.
7. Имanova, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.

8. Имanova, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.
9. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
10. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.
11. Имanova, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
12. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.
13. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.
14. Имanova, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
15. Imanov, B. B. (2023). O'QUVCHILARNING TABIATDA SODIR BO'LAYOTGAN FIZIK JARAYONLARNI ANGLAB ETISHDA TAJRIBALARING O'RNI. Interpretation and researches, 2(1).
16. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.
17. Imanov, B. B. (2021). Competences in the quality of education and their organization. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(5), 419-424.
18. Imanov, B. B. (2021). Lesson and its analysis as factor of increasing the quality of education. European scholar Journal. Available online at//www. scolarzest. com, 1.
19. Summers, D., Kushzhanov, N., Almurzayeva, B., Yesengulova, M., Abdirakhmanova, Y., Safarov, R., & Imanov, B. MORAL DILEMMAS IN DIGITAL & FOREIGN WORLD. BULLETIN OF NATIONAL ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN ISSN 1991-3494 Volume 2, Number 372 (2018), 68-74.
20. Berdievich, IB, & Nazinovich, SDND (2021). Dars va uning tahlili ta'lif sifatini oshirish omili sifatida. Yevropa olimlari jurnali , 2 (1), 42-45.
21. Mahmudov, YG, & Imanov, BB (2021). Dars sifati ko'rsatkichlari. Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqot jurnali , 10 (10), 653-656.
22. Каримова, М. (2023). O'zbek oilalarida qizlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 37-40.
23. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA

SOG ‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI.
Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.

24. Karimova, M. (2023). QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMILIGIGA TA'SIRI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).
25. Каримова, М. (2023). O'zbek oilalarida qizlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 37-40.
26. Ne'Matullayeva, S. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO'LLASHGA OID QARASHLAR. Science and innovation, 1(B4), 444-449.
27. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 86-88.
28. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. O 'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 1(6).
29. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).
30. Нематуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.
31. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdag'i bolalarning shaxs sifatida kamolotida o'yin terapiyasining ahamiyati . Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 43-46. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>
32. qizi Ne'matullayeva, S. X., & Ulug'bek qizi Abduqahhorova, M. (2023). BOLA SHAXSINING RIVOJIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO 'LLASH SHART-SHAROITLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 341-344.
33. Ne'matullayeva, S. (2022). PERSPECTIVES ON THE USE OF PLAY THERAPY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Science and Innovation, 1(4), 444-449.
34. Норбошева, М. А. (2023). КЛАССИФИКАЦИЯ МОТИВОВ УЧЕНИЯ. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 255-258.
35. НОРБОШЕВА, М. А. (2020). Отражение Национальных Ценностей В Национальных Играх. ECLSS Online 2020b, 312.